




ANALYSIS OF TRANSPORT NETWORK MANAGEMENT IN JIZZAKH REGION

Komron Ravshanov

Student, Faculty of Management

Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

kamronravshanov2003@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: geographical location, socio-economic geography, geographical aspects, transport system, industrial branches.

Received: 28.11.25

Accepted: 29.11.25

Published: 30.11.25

Abstract: The geographical location of Jizzakh region has distinctive features within the Republic of Uzbekistan. These features are manifested in both natural and socio-economic geography. In turn, the natural geographical conditions influence the economic and social development of the region. In particular, the interaction of economic systems established in the region is clearly reflected through geographical characteristics. This article examines the specific impact of the regional transport system on the organization and development of industrial branches and presents relevant conclusions.

JIZZAX VILOYATI TRANSPORT TARMOQLARI MENEJMENT TAHLILI

Komron Ravshanov

Menedjment fakulteti talabasi

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti

kamronravshanov2003@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: geographical location, social-economical geography, geographical aspects, transport system, industrial branches.

Annotatsiya: Jizzax viloyati geografik o'rni O'zbekiston Respublikasida alohida xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar ham tabiiy, ham iqtisodiy – ijtimoiy geografik jihatdan namoyon bo'ladi. O'z navbatida tabiiy geografik sharoit va hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, hududda

tashkil etilgan xo'jalik tizimlarining o'zaro ta'siri geografik xususiyatlar orqali yaqqol ko'rinadi. Maqolada viloyat transport tizimining hududida sanoat tarmoqlarini rotashkil etish rivojlantirishga ko'rsatadigan o'ziga xos ta'siri ko'rib chiqilgan va xulosalar berilgan.

АНАЛИЗ УПРАВЛЕНИЯ ТРАНСПОРТНЫМИ СЕТЯМИ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Комрон Равшанов

Студент, факультет менеджмента

Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

kamronravshanov2003@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: географическое положение, социально-экономическая география, географические аспекты, транспортная система, отрасли промышленности.

Аннотация: Географическое положение Джизакской области обладает особыми характеристиками в пределах Республики Узбекистан. Эти особенности проявляются как в природной, так и в социально-экономической географии. В свою очередь, природные географические условия оказывают влияние на экономическое и социальное развитие региона. В частности, взаимодействие хозяйственных систем, созданных в регионе, наглядно проявляется через географические особенности. В статье рассматривается специфическое влияние транспортной системы региона на организацию и развитие отраслей промышленности, приводятся соответствующие выводы.


Jizzax viloyatida transport tarmog'i avtomobil va temir yo'l yo'nalishlaridan iborat bo'lib, bu yo'nalishlarning shakllanishi hududiy xarakterga egadir.

Temir yo'llar Toshkent-Termiz yo'nalishining bir qismi bo'lib, viloyatga Sirdaryo viloyatining Xovos tumani orqali kirib keladi, Zomin tumaniga qarashli Dashtobod, Zarbdor tumanining Birlashgan aholi punktlari orqali Jizzax shahriga undan G'allaorol tumani orqali Samarqand viloyatiga o'tadi. Ta'kidlash kerakki, bu temir yo'l 19-asrning oxirida bunyod qilingan, binobarin O'zbekistondagi ilk temir yo'llardan hisoblanadi. Temir yo'l liniyasida 5 asosiy bekat (stansiya) lar va bir qancha to'xtash joylari (raz'ezdlar) mavjud bo'lib, bekat (stansiya)lar ham temir yo'l qurilgan davrlarda tashkil etilgan. Dashtobod, Zarbdor, Jizzax, G'allorol, Lalmikor bekat (stansiya)lari asosiylari hisoblanadi. SHuningdek, viloyat hududida ichki temir yo'l yo'nalishi ham qurilgan bo'lib, Jizzax, Paxtakor, Do'stlik, Gagarin shaharlarini bog'laydi, Forish tumanining Uchquloq posyolkasiga ham etkazilgan. Ayni vaqtda bu yo'ldan faqat Uchquloq konidan ruda

tashishda foydalaniladi. Lekin viloyat ichki temir yo‘li orqali asosiy shaharlar oralig‘ida yuk va yo‘lovchi tashishni tashkil qilish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Temir yo‘lining viloyat ishlab chiqarishini hududiy tashkil etishda va aholi joylashuvida ahamiyati kattadir. Agar Toshkent-Termiz yo‘nalishidagi temir yo‘l aholi qadimdan yashab kelayotgan hududlar oralig‘ida qurilganligi e‘tirof etilsa, bunday hududlarning o‘zaro bog‘lanishi ayni temir yo‘l vositasida yanada mustahkamlanganligini va hududiy rivojlanishga asos bo‘lganligini ta’kidlash joizdir. Birinchi navbatda temir yo‘l o‘tgan hududlardagi aholi punktlarining ahamiyati ortdi. Sobiq ittifoq davrida temir yo‘l o‘tgan hududlar viloyatning asosiy sanoatlashgan mintaqasi hisoblanar edi. Jizzax shahri bunda markaziy o‘rin tutib, Zomin, Zarbdor, G‘allaorol tumanlaridan mehnat resurslarini jalb qilish va ayni vaqtda sanab o‘tilgan tumanlarda ishlab chiqarish korxonalarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Dashtobod shahrida g‘isht zavodi, Zarbdor posyolkasida don elevatori, G‘allaorol tumanida ko‘plab ishlab chiqarish korxonalarining bunyod qilinishiga ayni temir yo‘l kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Jizzaxdan Paxtakor, Do‘stlik va Gagarin shaharchalarini bog‘lovchi temir yo‘l liniyasining o‘tkazilishi bu cho‘l tumanlarida ham yuk va yo‘lovchi tashish xizmatini shakllantirish bilan birga tuman markazlarida sanoatning ayrim tarmoqlari yo‘nalishida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning shakllanishini osonlashtirdi. Temir yo‘l liniyasining aholi punktlari shakllanishi va rivojlanishida ahamiyati kattadir. Yo‘l yoqasida joylashgan aholi punktlarida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyati oshadi, aholi soni ortib boradi va shu bilan birga yangi aholi punktlarining vujudga kelishiga imkoniyat tug‘iladi. Bu ayniqsa tekislik hududlarida sezilarli kechadi. Viloyat hududidan o‘tadigan temir yo‘l liniyalari ko‘plab aholi punktlarining vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan. Lekin, temir yo‘llardan unumli foydalanmaslik bu imkoniyatning ta’sirini yo‘qqa chiqarishi ham mumkin. Viloyat hududida temir yo‘l aksariyat aholi joylashuvi va aholi punktlarining shakllanishi, binobarin bu aholi punktlarida sanoat korxonalarini bunyod qilish uchun qulay joylardan o‘tadi.

Transport tizimida temir va avtomobil yo‘llarining parallel ravishda shakllantirilishi viloyat hududiga xos jihatlardan biridir. Viloyat hududidan alohida magistral avtomobil yo‘llaridan Katta O‘zbek trakti o‘tadi. Viloyat hududini boshqa viloyatlar bilan bog‘lovchi avtomobil yo‘llari barcha tumanlar hududida mavjud, ulardan ayniqsa, Jizzax – Yangier, Jizzax-Samarqand yo‘nalishlari serqatnovdir. Jizzax shahridan tuman markazlari, shaharlar va boshqa aholi punktlariga bog‘lanadigan avtomobil yo‘llarining ahamiyati turli darajada. Masalan, Jizzax shahridan Forish tuman markazi va aholi punktlariga bog‘lanadigan avtomobil yo‘li Navoiy viloyati hududiga o‘tish yo‘li hamdir. Jizzaxdan G‘allorol va Baxmal tumanlariga boradigan avtomobil yo‘li bevosita Katta O‘zbek trakti (M39) bilan qo‘shilib ketadi. Shunga ko‘ra bu yo‘llarning ahamiyati viloyat va hatto respublika miqyosida ahamiyatlidir.



Shunisi e'tiborliki, viloyat markazi bo'lgan Jizzax shahridan sanoatlashgan va sanoatlashish imkoniyat yuqori hududlarga har ikkala transport vositasida bog'lanish mavjud. Bu hol hududda sanoatning turli tarmoqlarini rivojlantirishni osonlashtiradi. Bunda shahar va tuman markazlari bilan viloyat markazi o'rtasidagi masofaga va transport tizimi bo'ylab shakllangan aholi punktlarining soniga alohida e'tibor berish lozim.

Jizzax viloyati tuman markazlarining Jizzax shahrigacha bo'lgan masofasi.

Tumanlar	Maydoni ming km.kv	Tuman markazi	Jizzax gacha masofa
Arnasoy	0,49	G'oliblar	52 km
Baxmal	1,86	Usmat	60 km
Do'stlik	0,45	Do'stlik	47 km
Jizzax	1,44	Uchtepa	8 km
Zarbdor	0,51	Zarbdor	27 km
Zomin	2,87	Zomin	57 km
Zafarobod	0,47	Zafarobod	34 km
Mirzacho'l	0,42	Gagarin	69 km
Paxtakor	0,38	Paxtakor	25 km
Forish	9,90	YAngiqishloq	67 km
G'allaorol	1,90	G'allaorol	30 km
YAngiobod	0,41	Balanchakir	90 km

Jizzax viloyati tumanlari hududiy geografik jihatlariga ko'ra tog' va o'zlashtirilgan cho'l hududlari tumanlariga bo'linadi. Ayni holat transport tizimidan foydalanish va uni tashkil etishga ta'sir etadi. Ko'rinib turibdiki, viloyat markaziga eng uzoq bo'lgan tumanlar tog'li hududlarga to'g'ri keladi, shu bilan birga ularga transport vositalarining etib borish jihatlarini turlichadir. Masalan

YAngiobod va Baxmal tumanlari markazlariga etib borish Zomin va Forish tuman markazlariga etib borishdan ko'ra ko'p vaqtni oladi, yo'llar o'tgan hududlarning rel'ef xususiyatlari bilan bog'liq. Transport tizimiga yaqin joylashgan aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish nuqtalari bo'lib xizmat qilish mumkin. Buning uchun bunday aholi punktlarining tabiiy geografik shart-sharoitlariga bog'liq bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari tahlil qilinishi zarur. Tekislik hududlari bunday imkoniyatlar to'la namoyon bo'ladi, albatta aholi sonini hisobga olgan holda. Jizzax viloyati cho'l tumanlarida aholi zichligi ancha pastligini nazarda tutilsa, avvalo hududning mehnat resurslari bilan ta'minlanishini tashkil qilish zarurligi ta'kidlanadi. Tog' tumanlarida resurslar va imkoniyatlardan foydalanish bir qancha tabiiy omillar, xususan yer yuzasining tuzilishi va mavsumiy yog'ingarchilik keltiradigan sel oqimlari tufayli murakkablashadi.

Jizzax viloyati transport tizimiga bevosita yaqin joylashgan va transport tizimidagi rivojlanishga bog'liq ravishda sanoatlashish imkoniyatlari mavjud aholi punktlari talaygina va ularni ushbu imkoniyatlar bilan bog'liq o'rganib chiqish hamda xulosalar chiqarish mumkin. Avvalo, viloyat transport tizimidagi yo'nalishlarni hududiy belgilash maqsadga muvofiq. Bu viloyat markazidan boshlanadigan va boshqa hududlarga bog'lanadigan yo'nalishlar asosida olib borilishi zarur. Transport yo'nalishlari va ular atrofida joylashgan aholi punktlarining sanoatlashish imkoniyatlari hududiy nuqtai nazardan turli darajadadir. Aholi punktlarida sanoatning transport tizimi bilan uyg'un rivojlantirish bir qancha omillarga bog'liq. Bular

- Transport yo'llarining serqatnovligi;
- Yo'lning yirik magistrallar va markaziy o'rin tutuvchi hududlarga yaqinligi;
- Aholi punktlarining demografik rivojlanishi barobarida mehnat resurslarining etarliligi;
- Tabiiy resurslar bilan etarli darajada ta'minlanganlik.

Hudud sanoatining rivojlanishida magistral yo'llar bilan bog'lanish, shu bilan birga ularga nisbatan juda yaqin joylashmaganlik ma'qullanadi. Serqatnov yo'llar yaqinida faqat xizmat ko'rsatish shohrbchalarini shakllantirish mumkin, ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari uchun esa yirik aholi punktlariga yaqinlik talab etiladi. Viloyatdagi transport tizimi yo'nalishlari bo'yicha sanoatning turli tarmoqlar bo'yicha rivojlanish imkoniyatlari ayniqsa Jizzax-Mirzacho'l va Jizzax – Xovos yo'nalishida yuqoridir. Bu hududlar ayni vaqtda qishloq xo'jalik, xususan paxtachilik tumanlari hisoblansada, aholi punktlari o'rtasida masofaviy yaqinlik va avtomobil yo'llari bilan izchil bog'langanlik turli sanoat tarmoqlarini shakllantirishni osonlashtiradi. Qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, viloyatning boshqa yo'nalishlari rekreasion imkoniyatlarga boyligi bilan ajralib turadi, binobarin bu yo'nalishlarda noishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiq keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayeva, A. Z. (2022). Advantages of tourism in jizzakh region. *Oriental Journal of Geography*, 2(02), 12-17.
2. G‘apporov, A. (2020). Characteristics of population development in uzbekistan. *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal*.
3. Gapparov, A. N. (2021). On the values of geographical conditions of height belts in the development of localities. In *инновации в науке, обществе, образовании: факторы и механизмы устойчивого развития* (pp. 126-138).
4. Гаппаров, А. Н. (2020). Территориальное описание урбанистической структуры джизакской области. *Экономика и социум*, (11 (78)), 562-567.